

“O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA ADABIYOTSHUNOSLIGI TARAQQIYOTI, XALQARO HAMKORLIK MASALALARI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

INSHO YOZISH TALABLARI VA O‘QUVCHILARNING TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHDA INSHONING O‘RNI

I.Ibodullayeva

Nukus davlat pedagogika instituti

2-bosqich doktoranti

Annotatsiya: *Mazkur maqolada o‘quvchilarga insho yozish tartibini o‘rgatish, insho yozganda talab doirasida, ketma-ketlikda yozilishi kerak ekanligini tushuntirish haqida to‘xtalangan. Bundan tashqari bugungi kunda o‘quvchilarning og‘zaki va yozma savodxonligi pasayib ketayotganligi, o‘quvchi tafakkurini shakllantirishda insho yozishning o‘rni va ahamiyati kata ekanligi haqida so‘z borilgan.*

Kalit so‘zlar: *insho, ta‘lim jarayoni, tafakkur, yozma nutq, reja, epigraf, matn, dialog, shaxsiy fikr.*

Аннотация: *Данная статья посвящена обучению студентов написанию эссе, поясняя, что при написании эссе его следует писать в рамках требований и в последовательности. Кроме того, было сказано, что сегодня снижается устная и письменная грамотность учащихся, а роль и значение написания эссе в формировании мышления учащегося высоки.*

Ключевые слова: *эссе, учебный процесс, мышление, письменная речь, план, эпиграф, текст, диалог, личное мнение.*

Abstract: *This article focuses on teaching students how to write an essay, explaining that when writing an essay, it should be written within the requirements and in sequence. In addition, it was said that today the oral and written literacy of students is decreasing, and the role and importance of essay writing in the formation of the student's thinking is high.*

Key words: *essay, educational process, thinking, written speech, plan, epigraph, text, dialogue, personal opinion.*

Davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyevning ma‘naviy-marifiy masalalarga doir har bir chiqishlarida ajdodlar merosini qadrlash, ularning tafakkur mahsulidan unumli foydalanish, kitob mutolaasiga alohida e‘tibor qaratish ta‘kidlanadi, o‘tmish an‘analar, axloqiy-ma‘rifiy qarashlar bugunni yorituvchi mash‘al sifatida e‘tirof etiladi. “Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma‘naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz,” – degan so‘zlari biz uchun dasturulamal vazifasini o‘tamoqda [Sh. Mirziyoyev. 1:25]. So‘nggi yillarda respublikamizda ta‘lim jarayoniga yangi talablar qo‘yilmoqda. Ta‘lim sohasiga oid qabul qilinayotgan qator qaror va buyruqlarda kelajak avlodning yetuk, barkamol bo‘lishiga, erkin shaxs sifatida tarbiyalanishiga, teran tafakkur egasi bo‘lishiga, nutqiy jihatdan mukammalligiga alohida ahamiyat berilgan. Asosiy maqsad ta‘lim sohasini rivojlantirish, uni jahon andozalariga muvofiq keladigan darajaga yetkazishdir. [Xalq so‘zi. 2:3] Mana shu maqsad asosida o‘quv maskanlarida ta‘lim

“O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA ADABIYOTSHUNOSLIGI TARAQQIYOTI, XALQARO HAMKORLIK MASALALARI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

ishlarini yaxshilash talabi qo‘yildi. Ayniqsa, barcha ta‘lim yurtlarida ona tilini o‘qitishni rivojlantirish va davr talabi darajasiga ko‘tarish eng muhim masalalardan biriga aylandi.

8-sinf o‘quvchilari yozma nutq bo‘yicha quyidagi bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi shart: fikrni yozma shaklda bayon etish (miqdoriy ko‘rsatkichi 20-25 gap); sifat ko‘rsatkichlar – matnda bog‘lovchi vositalardan to‘g‘ri foydalanish; matn yaratish jarayonida o‘zbek adabiy tili grammatikasining me‘yor va imkoniyatlariga rioya qilish; so‘zlashuv nutqi bilan kitobiy nutq me‘yoriga amal qilish; gapda so‘zlarni to‘g‘ri joylashtirish; o‘zgargan tartibdan to‘g‘ri foydalanish; ikki bosh bo‘lakli va bir bosh bo‘lakli gaplardan sintaktik sinonimlar tarzida foydalanish; bayon, insho, ish qog‘ozlari (xabar, ma‘lumotnoma, ariza, hisobot, tarjimai hol) yozish; yozish uchun material to‘play olish; to‘plangan materialni tizimga sola bilish; sodda va murakkab reja tuza bilish; yozma ishga epigraf tanlay olish; ishga qiziqarli 14 epizod qo‘sha olish; dialogli parchalar kiritish; tinish belgilarini o‘rinli ishlata olish; matnni tahlil qila bilish; matniy sinonimlarni ishlata bilish. 9-sinf o‘quvchilari yozma nutq bo‘yicha quyidagi bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi shart: Fikrni yozma shaklda bayon etish bo‘yicha: Miqdoriy ko‘rsatkich 25-30 gapdan iborat bo‘lgan tugal matn (fikr ehtiyoji bilan bog‘liq mavzu asosida) yaratish. Sifat ko‘rsatkichlar—matndagi gaplarni mazmunan o‘zaro bog‘lash, fikr izchilligini ta‘minlash, o‘rganilgan ifoda vositalarini o‘rinli qo‘llash va ularning uslubiy imkoniyatlaridan foydalanish; ish qog‘ozlari (ariza, ma‘lumotnoma, ishonch xati, ixcham hisobot, axborot, taqriz kabilar)ni yozish;

Inshoning mazmuniga mos keluvchi mashhur hikmatli so‘z, maqol, ibora yoki badiiy parcha epigraf deyiladi. Epigraf, odatda, rejadan keyin, insho matnidan oldin, sahifaning o‘ng chekkasida yoziladi. Epigraf bo‘lgan matndan so‘ng (so‘roq yoki undov gap bo‘lmasa) nuqta qo‘yiladi, muallifi qavs ichida yoziladi. Inshoda epigraf bo‘lishini qat‘iy talab deb tushunmaslik kerak, u tamoman ixtiyoriydir. Lekin mavzuga va ichki mazmunga hamohang keluvchi epigraf tanlansa, inshoning badiiyligiga xizmat qiladi, insho muallifining mahoratini ko‘rsatadi. [Hazratqulov M.R. 3:85]

Inshoni mazmunli yozish va berilgan mavzuni chuqur yoritishga erishish uchun o‘quvchi oldin inshoga tegishli bo‘lgan mavzu, epigraf, reja, tezis, dalil, kirish, asosiy qism, xulosa kabi tushunchalarni puxta o‘zlashtirib olishi zarur.

Bugungi kun talabi bo‘yicha o‘quvchilarning tafakkurini rivojlantirish va erkin fikrlashga o‘rgatish dolzarb muammoga aylanmoqda. Chunki, bugungi kunda, texnika, texnologiya shiddat bilan rivojlanayotgan bir davrda, o‘quvchilar kitob mutolaa qilish, bir-biri bilan fikr almashish, muloqot qilish emas, balki ko‘p vaqtini

“O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA ADABIYOTSHUNOSLIGI TARAQQIYOTI, XALQARO HAMKORLIK MASALALARI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

telefon, kompyuter, internet va ijtimoiy tarmoqlarga sarflamoqda. Biz bilamizki, erkin fikr yuritish va tafakkurni rivojlantirish uchun avvalo, oiladagi tarbiya va kitob mutolaasi kata ahamiyatga ega. Agar farzandning oilada bolaligidan aytayotgan fikrlari ota-onasi tomonidan inobatga olinib, rag‘batlantirilib borilsa yoki noto‘g‘ri fikr ekanligi tushuntirilib, to‘g‘ri fikr yuritishni o‘rgatsa bolada tafakkur yaxshi rivojlanadi. Maktab davrida esa ma’lum bir voqea-hodisaga yoki mavzuga shaxsiy fikr bildirish uchun o‘quvchining tafakkurini chrxlovchi vositalardan biri bu insho yozdirishdir. Chunki o‘quvchiga berilgan mavzu yuzasidan yoki ixtiyoriy mavzu doirasida o‘quvchi fikr yuritadi, ijod qiladi, tafakkur rivojlanadi. Tafakkuridagi fikrlarni chiroyli tarzda qog‘ozga tushirishi kerak bo‘ladi. Bu jarayonda nutq va tafakkur integratsiyasi bo‘ladi.

Bugungi kunda maktab o‘quvchilari orasida o‘z fikrini og‘zaki nutqiga chiqarib, tinglovchiga yetkazib bera olmaslik holatlari yoki yozma ravishda fikrlarini yozib bera olmaslik holatlari ko‘p uchramoqda. Bunga ta’sir etuvchi omillar ko‘p, albatta. Bunday omillarning biri bu o‘quvchida biror voqea-hodisaga fikr bildirishni bilmasligi ya’ni loqaydligidir. O‘quvchiga biror mavzuga, voqea-hodisa qaysidir tomondan yondashishni, ijodiy fikrlashni o‘rgatishimiz lozim. Bu yo‘lda bizga o‘quvchilarga insho yozdirish kata yordam va samara beradi.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, bugungi kun talabi bo‘yicha yoshlarni erkin fikrlashga o‘rgatish va tafakkuridagi fikrlarini nutqiga chiqarib bera olish qobiliyatini shakllantirish uchun o‘quvchilarga insho yozish talablarini singdirish va mavzuga ijodiy yondashishni o‘rgatish muhimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. -Toshkent: O‘zbekiston, 2017.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari” to‘g‘risidagi qarori. – “Xalq so‘zi” gazetasi, 2017-yil, 21-aprel.
3. Hazratqulov M. R. Adabiy ta’limda inshoning o‘rni va uni tashkil etishning ilmiy-metodik asoslari. PhD diss... 2018.